



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

O‘ZBEK TILIDA O‘XSHATISHLAR TADQIQI ANALYSIS OF SIMILAR UZBEK LANGUAGE

Bovmanova Bashorat To‘ychi qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

bashoratbovmanova@mail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./QEJV7031](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./QEJV7031)

Annotatsiya. *Ushbu tezis o‘zbek tilida o‘xshatishlarning tadqiqiga bag‘ishlangan. O‘xshatishlarning tilshunoslikdagi o‘rni va ahamiyati qisqacha yoritilgan, bugungacha bo‘lgan tadqiqotlarning asosiylari va ularning ahamiyati ochiqqlangan.*

Kalit so‘zlar: *o‘xshatish, farqlilik, nisbiylik, tadqiqot.*

Annotation. *This thesis is devoted to the study of similes in the Uzbek language. The role and significance of similes in linguistics are briefly discussed. The main studies conducted to date and their importance are explained.*

Keywords: *comparison, diversity, relativity, research.*

Borliqni idrok etishda voqelikdagi mavjud jarayonlarni bir-biriga o‘xshatish va qiyoslash, buning natijasida ikki yoki undan ortiq aniq va mavhum narsalarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash bilish jarayonining eng maqbul usullaridandir. Insoniyat yashay boshlagan ilk ibtidoiy davrlarda tabiiy ehtiyojlar ortgan sari olamni chuqurroq anglash, borliqdagi jarayonlarni aqliy faoliyatga bog‘lagan holda yanada yaxshiroq idrok etish uchun “o‘xshashlik”, “farqlilik”, “nisbiylik” kabi tushunchalar paydo bo‘la boshladi. Bu esa mavhum tushunchalarni konkretlashtirishga zamin hozirladi.

Arastu o‘zining mashhur “Poetika” asarida inson jonivorlardan tashqi voqelikdagi predmet va hodisalarni o‘xshata olishi bilan farq qilishi va o‘zining dastlabki bilimlarini o‘xshatishdan olganligini ta’kidlaydi [Аристотел, 2004: 20].

N.Mahmudov ta’kidlaganidek, “...qiyoslash bilingan narsa-xususiyat vositasida bilinmagan narsa-xususiyatni osonlik bilan bilish imkoniyatini beradi, ya’ni, masalan, toshning qattiqligi bilingan xususiyat bo‘lsa, endi boshqa narsalarning shu xususiyati toshga qiyosan(toshdan qattiq) yoki toshga o‘xshatish orqali (toshday qattiq) osonlik bilan idrok etilaverishi mumkin [Махмудов, 2011: 19-24]”.

O.S.Axmanova “Tilshunoslik terminlari lug‘ati”da lisoniy o‘xshatishga quyidagicha ta’rif beradi: “O‘xshatish (ingl. simile, fr. comparaison, nem. Gleichnis, isp. simil.) bir predmetni boshqasiga ular o‘rtasidagi umumiy bo‘lgan xususiyat asosida qiyoslash [Axmanova, 1966]”.



O'xshatishlar har bir millatning milliy-madaniy tafakkur mahsuli bo'lgani uchun lingvokulturologik ishlarning bir qancha qismida mavzu ko'lamidan kelib chiqqan holda aynan o'xshatishlar tahlilga tortilganining guvohi bo'lamiz. Jumladan, o'zbek tilshunosligida Mukarramov va Qo'ng'urovlarning ishlarida o'xshatishlarning semantik-grammatik, semantik-stilistik jihatdan o'rganilganini ko'rishimiz mumkin. Keying tadqiqot ishlari esa bevosita D.Xudoyberganova nomi bilan bog'liq. Olima o'xshatishlarning stilistik xususiyatlarini tadqiqot markazi etib belgilagan. Unda o'xshatishning asosi fe'l va sifat bo'lgan o'xshatish qurilmalari tahlilga tortilgan. O'zbek tilida inson haqidagi turg'un o'xshatishlar ma'naviy guruhlariga ajratilgan.

N.Mahmudovning “O'xshatishlar – obrazli milliy tafakkur mahsuli” nomli maqolasining e'lon qilinishi orqali o'zbek tilida o'xshatishlarning lingvokulturologik jihatlariga e'tibor qaratila boshlandi. Maqolada o'xshatishlarning mohiyati, ularning tarkibiy komponentlari, metafora va o'xshatishning farqli jihatlari ochib berildi va individual-muallif o'xshatishlari (erkin) va umumxalq yoki turg'un o'xshatishlar kabi guruhlariga ajratildi [Махмудов, 2011: 3].

2013-yilda N.Mahmudov hamda D.Xudoyberganovalar hamkorligidagi o'zbek tilida ilk bor “O'zbek tili o'xshatishlarning izohli lug'ati”ning yaratilishi bu boradagi izlanishlar samarasi bo'ldi. Mazkur lug'atda tilimizda mavjud o'xshatishlar badiiy asarlardan olingan misollar va nutqimizda faol qo'llaniluvchi birikmalar orqali ko'rsatib berildi. So'nggi yillarda o'xshatishlarning antroposentrik jihatdan tadqiqiga bag'ishlangan monografik ishlardan biri sifatida

F.Usmonovning “O'zbek tili o'xshatishlarining lingvomadaniy tadqiqi” mavzusidagi dissertatsiyasini e'tirof etish mumkin. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi o'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlar o'zbek millatiga xos olamning lisoniy manzarasini namoyish etuvchi lingvomadaniy birliklar ekanligi dalillangan, turg'un o'xshatishlar tahlili orqali o'zbek madaniyati me'yorlarini aniqlash imkoniyati yaratilgan, turg'un o'xshatishlar vositasida madaniy axborotni tashuvchi lingvomadaniy kodlar ierarxiyasi aniqlangan, turg'un o'xshatishlarda olamning turli unsurlariga oid aksiologik munosabat va milliy-madaniy konnotatsiya reallashishi asoslangan, o'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlar vositasida ifodalanuvchi o'zbek madaniyati tayanch qadriyatlari aniqlangan [Usmonov, 2020].

Tilshunoslikda o'xshatishlarni tashkil etuvchi to'rtta komponent farqlanadi: o'xshatish subyekti, o'xshatish obyekt, o'xshatish asosi, o'xshatishning formal ko'rsatkichi. O'xshatish subyekti – o'xshatilayotgan narsa, o'xshatish obyekt – o'xshash bo'lgan narsa, o'xshatish asosi – o'xshatishga asos bo'lgan belgi, o'xshatishning formal ko'rsatkichi o'zbek tilidagi -dek, -day, xuddi, singari, misli, misoli, bamisoli, go'yo, go'yoki, naq kabi vositalardir. Masalan, **onamdek mehribon ayol** birikmasida ayolning mehribonligi onaga dek

vositasida o‘xshatiladi. Shunda ayol o‘xshatish subyekti, onam o‘xshatish obyektini (etaloni), mehribon o‘xshatish asosi, -dek o‘xshatish vositasidir.

Lingvokulturologiyada o‘xshatishlar ushbu fanning o‘rganish predmeti sifatida tadqiq qilinadi. Zero, o‘xshatishlarda milliy madaniyat, millatning idrok intizomi aks etadi, shuning uchun ham ular nutqni hamisha badiiy-estetik qimmatini oshirib, uning emotsional-ekspressivligi, ta’sirchanligi va ifodaliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Аристотел. Поэтика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
3. Маҳмудов.Н Ўхшатишлар-образли миллий тафаккур маҳсули// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – Н3.
4. Usmonov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2020.
5. I A O‘razova Death” in Navoyi “Khamasa”/International Congress of Postgraduate Students from Altai to Anatolia. 2024. P. 28-30
6. KOMILOVA, G. (2025). PAREMIOLOGIK BIRLIKLARDA QADRIYATLAR IERARXIYASINING AKS ETISHI. Modern Science and Research, 4(5). Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/102978>
7. Muhammadiyeva D. “Boburnoma” lug‘atlarining leksikografik talqini. Vol. 3 No. 3 (2025): O‘ZBEKISTON: TIL VA MADANIYAT. Lingvistika.
8. Qahharova S. TEZAURUSNING SEMANTIK TAHLILLARDAGI O ‘RNI //Oriental Conferences. – ООО «SupportScience», 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 446-452.
9. Shamsieva M. EXPERIMENTAL STUDY OF SPEECH DEVELOPMENT IN BILINGUAL CHILDREN. ACADEMICIA An International Multi disciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) DOI: 10.5958/2249-7137.2021.01845.0 ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 8, August 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492
10. РАШИДОВА, Н. (2021). THESAURUS LEXEMES OF THE EDUCATIONAL SPHERE. Иностранные языки в Узбекистане, (1), 33-43.
11. <https://cdn.uza.uz/2022/05/20/07/06/iSDRDqzFkFh20mbv3oCiWKbFawZCQ63p.pdf>
12. Z Xolmanova [SUN‘IY INTELLEKT: BORIS](#) - COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS ..., 2023
13. X M. [«Qutadg‘u bilig»dagi aforizmlar semantikasi](#) ЎзМУ хабарлари, 306-308